

**MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINI TARAQQIY ETISHIDA
INNOVATSION JARAYONLARNING TUTGAN O'RNI**

Shamshetova Húrliman Salawatovna

Kutubxona faoliyati 3-kurs

Ilimiy rahbar

Sharipova Dilbarxon Atajanovna

Kutubxona faoliyati aga oqtuvchi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada milliy madaniyatni yanada rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli kamchiliklar, milliy madaniyatni yanada rivojlantirishning asosiy tamoyillari o'r ganilib, madaniyat va san'at sohasini taraqqiy etishida innovatsion jarayonlarning tutgan o'rniiga baho berilgan va madaniy loyihaning asosiy innovatsion belgilari ajratilgan holda innovatsion madaniy mahsulot va xizmatlarni rivojlantirish, madaniyat va san'at sohasini takomillashtirish va vechur kapitalini rivojlantirish masalalari o'r ganilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, madaniyat va san'at, madaniy qadriyatlar, ijod erkinligi, vechur kapitali, innovatsion jarayonlar.*

Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, hozirgi vaqtda madaniyatning innovatsion tarkibiy qismining ahamiyati davlat darajasida kata e'tirob qaratilishi Yangi O'zbekistonning bosh maqsadiga aylandi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "Mamlakatimiz aholisi, avvalo yoshlar, qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, shu yo'nalishdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini yanada oshirishimiz zarurligi davr talabiga aylanib bormoqda" - deya ta'kidlab o'tgan edi.

Yangi O'zbekiston madaniyat sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Haqiqatan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3920-son qarorini imzolashi buning yaqqol isbotidir. Bu qaror ijrosi madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishni ta'minlash, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, aholining madaniyat muassasalariga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish, mamlakatimizning jahon madaniy makoniga integratsiyalashuvini ta'minlashni nazarda tutadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydag'i "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarning naqadar dolzarbligini ko'rsatib turibdi. Farmonga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish

infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarida moddiy-madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlarini restavratsiya qilish uchun xarajatlarga 500 mlrd. so‘m ajratilishi belgilandi. So‘nggi to‘rt-besh yilda Yangi O‘zbekistonda madaniyat sohasida sodir bo‘layotgan jarayonlar madaniyat va san’at rivojida ayniqsa, jamiyatning ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishidagi rolida ham yuqori darajaga ko‘tarildi. Hech shubhasiz, o‘z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo‘lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo‘lishning o‘zi kata baxt, kata sharafdir. Shunday jarayonlardan biri, innovatsiya muammosi hisoblanadi. Madaniyat va san’at sohasida innovatsion rivojlanishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishda ba’zi yutuqlar va ba’zi muvaffaqiyatsizliklarga qaramasdan, bu jarayon O‘zbekiston uchun hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bunda asosiy muammo - iqtisodiyot va jamiyatning uzoq muddatli turg‘unligi va mamlakatning jahon taraqqiyotidan ancha ortda qolib ketishi sanaladi. Ayni paytda, milliy madaniyatni yanada rivojlantirishga to‘sinqlik qilayotgan bir qator tizimli kamchiliklar mavjud. Jumladan: birinchidan, madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, madaniyat va san’at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratilmagan; ikkinchidan, yosh ijodkorlarga ta’lim-tarbiya berish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali olib borish, aholining o‘sib borayotgan madaniy ehtiyojlarini qondirish va madaniy xizmatlar sifatini keskin oshirish imkonini bermayapti; uchinchidan, aksariyat madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamon talablari va xalqaro standartlarga mos kelmaydi, bu esa ularning to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishiga to‘sinqlik qilmoqda; to‘rtinchidan, zamonaviy media makonda milliy madaniyatimiz munosib o‘rin egallamagani, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to‘liq joriy etilmagani sohani keng tadqiq va targ‘ib etish, xalqaro madaniy jarayonlarga talab darajasida integratsiya qilishga yo‘l bermayapti; beshinchidan, madaniyat va san’at sohasidagi nufuzli xalqaro festival va tanlovlarda ijodkorlarimizning ishtirokini izchil ta’minalash va ularning sara asarlarini namoyish etish, milliy ijodiy mahsulotlarni eksport qilishning samarali tizimi yaratilmagani, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagani ham soha rivojiga to‘sinqlik qilmoqda. Bu muammolarni bartaraf etishda innovatsiya jarayonining tarkibiy qismlarida nazarda tutilgan ishlarni amalga oshirish kerak. Innovatsion rivojlanish jarayoning ikkita asosiy tarkibiy qism - innovatsion loyihalarni amalga oshirish va innovatsion salohiyatni rivojlantirish bo‘lib, jamiyatning innovatsion madaniyatining yetishmasligi innovatsiyalar turg‘unligining asosiy sabablaridan biridir. Har qanday innovatsion rivojlanish nafaqat asosiy innovatsion jarayon, balki uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan omillar va shartlar tizimini, ya’ni innovatsion salohiyatni

rivojlantirishdir. Madaniy innovatsion loyihalarni amalga oshirish va madaniy innovatsion salohiyatni rivojlantirish orqali madaniyat sohasida innovatsion taraqqiyotga erishish mimkin. Ko‘p muammolar moliyaviy tomondan farqli tekislikda yotadi. Taniqli menejer, Germaniya Federativ Respublikasi Fraunhofer jamiyati prezidenti, professori H.Yu. Varnecke bozor segmentini ko‘paytirish va mahsulot sifatini yaxshilash kabi deyarli barcha yakuniy maqsadlarga eng yaxshi ijtimoiy tizimga ta’sir qiluvchi strategiyalar orqali erishish mumkin, deb hisoblaydi. Ushbu jarayonda texnika va texnologiyalar juda kichik rol o‘ynaydi.

Bir tomondan, madaniyat va san’at, boshqa tomondan, tabiiy fan va texnikaning tarqoqligi falokatga olib kelish xavfini tug‘diradi. Innovatsion jarayonlar muqarrar ravishda xatarlar va noaniqliklar bilan tavsiflanganligi sababli, ko‘plab tadqiqotchilar mamlakatda rivojlangan vechur kapitalining mavjudligi innovatsion jarayonlarning muvaffaqiyatini belgilovchi omil deb hisoblashadi. Uning zaif rivojlanishi tufayli, masalan, Yevropa mamlakatlari innovatsiya sohasida AQShdan ma’lum darajada orqada qolmoqda. Biroq, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu boradagi farq unchalik katta emas. Shunday qilib, hisobkitoblarga ko‘ra, innovatsiyani vechur investitsiyalari emas, aksincha, innovatsion jarayonlardan talab vechur kapitalining rivojlanishini rag‘batlantiradi va ikkinchisining rivojlanish darajasi institutsional muhit sifati bilan uzviy bog‘liqdir. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ijtimoiy sohadagi zamonaviy mahsulotlar va xizmatlar nafaqat iste‘molchilarning ehtiyojlari asosida shakllanadi, balki o‘zları ham ushbu ehtiyojlarni shakllantiradi. Masalan, yuqori texnologik tibbiy yordam xizmatlariga, masofaviy ta’limga bo‘lgan ehtiyoj, zamonaviy insonning turmush tarziga mos keladi, shu bilan birga, bunday xizmatlar ko‘rsatish innovatsiyalar, xususan, texnologik rivojlanishlar tufayli amalga oshirish mumkin. Binobarin, bizning fikrimizcha, vazifa zamonaviy odamni avvalgi madaniy ehtiyojlar doirasida ushlab turish emas, balki jozibali va shu bilan birga konstruktiv qadriyatlarni shakllantiradigan madaniy mahsulotni taklif qilishdan iboratdir. Bunga qanday erishish uchun madaniyat xodimlarining ijodkorlik va yangilik yaratish qobiliyati, ularning ijtimoiy mas’uliyati, va nihoyat, deklarativ emas, balki bilvosita ta’sir qila olishi orqali erishish mumkin. Aholining e’tiborini madaniy xizmatlarga jalb qila oladigan yangiliklar degani nimani anglatishiga to‘xtalamiz. Rasmiy hujjatlarda, xususan, innovatsiyalarning texnologik tarkibiy qismiga urg‘u beriladi: gap ommaviy axborot markazlarini yaratish, ko‘p funksiyali madaniy majmualar tarmog‘ini shakllantirish, universal mobil tizimlar sonini ko‘paytirish haqida ketmoqda. Tadqiqotchilar innovatsiyalar deganda ijtimoiy-madaniy vaziyatning o‘zgarishi, yangi madaniy mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, mavjud ob‘ektlar, yondashuvlar va texnologiyalarni ijodiy rivojlantirish kabilarni nazarda tutgan holda ushbu kontsepsiya yana kengroq ma‘no kiritdilar. Aynan g‘oyalar, zamonaviy ijodiy mahsulotlarning etishmasligi byudjet muassasalari xizmatlari iste‘molchilari sonining kamayishi, ularning faoliyat ko‘lamini pasayishining sabablaridan biri sanaladi. Maxsus adabiyotlarda ifodalangan madaniy loyihaning innovatsion belgilaridan biz

quyidagilarni ajratib ko'rsatamiz: faollik: atrofdagi voqelikni o'zgartiradigan loyihalarni boshlash, madaniyat muassasalarining ijtimoiy hayotdagi ishtiroki, tinglovchilarni jalg qilish shakllaridan foydalanish; dolzarblik: zamonaviy shaxs, yangi ijtimoiy guruhlar ehtiyojlariga muvofiqlik, zamonaviy mobil va band turmush tarziga muvofiqlik - moslashuvchan ish vaqt, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish uchun ochiq shahar maydonlaridan foydalanish (shaharlashgan va tabiiy). San'at turlari va madaniy tadbirlar; "uxlab yotgan" joylarda joylashgan madaniy tashkilotlar faoliyatini faollashtirish. Umuman olganda, biz intellekt, ijodiy munosabatlar, turli xil san'at turlarining integrasilashuvi, jamiyatdagi mehnat shakllarini o'zgartirish, madaniyat holatini baholash va loyihalashga e'tiborni qaratish, menejmentni o'zgartirish kabilarni istiqbolga yetaklaydi, deb ayta olamiz. Darhaqiqat, innovatsiyalar sharoitida biz aholining madaniy muassasalardan (bu muassasalar prinsipial ravishda ishlashiga qo'shimcha ravishda) ham moddiytexnologik, ham ijodiy (kasbiy va texnologik) o'zgarishlar kutayotganini ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Ijodiy o'zgarishlarga turli toifadagi fuqarolar uchun ularning zamonaviy ehtiyojlariga mos keladigan turli xil xizmatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga ijodiy yondoshishni kiritish mumkin. Albatta, madaniy "xizmat"ning sust rivojlanishi, hattoki avvalgilaridan mahrum bo'lish (masalan, filmlarni tarqatish) sharoitida rivojlanish darajasi past bo'lgan shaharlar, qishloqlar aholisining zamonaviy madaniy xizmatlarga talabi hali hamon juda past darajadadir. Biroq, innovatsiyalarning asosiy xususiyatlarni - bu dolzarblik, ijodkorlik va zamonaviy texnik vositalardan foydalanishga talabni - bu hududdagi madaniy talablarda ham ko'rish mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy sohani umumiy modernizatsiya qilish nafaqat madaniyatning yangi iste'molchilarini, balki uni yaratuvchilarni ham shakllantiradi. Yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish va madaniy mahsulotlarni targ'ib qilish ijodkorlar va iste'molchilarini, xususan, ijodiy sohalar doirasida birlashtiradi. Iste'molchilarini ijodiy jarayonga jalg qilish orqali ijodkorlar ularni asarlar yaratilishidagi quvonchlariga qo'shilishiga imkon beradi va ular, o'z navbatida, "o'zlarining" tomoshabinlari va tinglovchilarini yaxshiroq anglay boshlaydilar. Multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda badiiy festivallar, kontsertlar va ko'rgazmalar, muzey va teatr jamoatchiligini birlashtirgan loyihalar kabi yangi ijod turlari nafaqat yangi ijodiy yondashuvlarni, balki axborot texnologiyalari yangiliklaridan va yangi boshqaruva ko'nikmalaridan foydalanishni talab qiladi. Bu mavjud modernizatsiya qilish va innovatsion boshqaruva usullarini joriy etish byudjet sohasini isloh qilish, madaniyatning institutsional sohasini o'zgartirish, tashkilotlar boshqaruvining rolini kuchaytirish va innovatsion yondashuvlardan foydalangan holda ijtimoiy-madaniy sohada boshqaruva amaliyotining tarqalishi bilan tavsiflangan yangi sharoitda madaniyat sohasidagi boshqaruva samaradorligini oshirishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, innovatsion madaniy mahsulot va xizmatlarni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlar iste'molchisini shakllantirish zarur, buning uchun madaniyat va san'at sohasini takomillashtirish va venchur kapitalini rivojlantirish; fan, ixtirolar va texnologiyalari

transferini rivojlantirish; sohada innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish; raqobatni rivojlantirish va ma'muriy to'siqlarni qisqartirish; infratuzilma va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ш.М.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент. «Ўзбекистон» нашиёти, 2021. 464-бет.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26 may 2020 yilda imzolagan "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O'zbekiston Yoshlar forumida so'zlagan nutqidan iqtiboslar. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik.-Toshkent: Toshkent nashriyot uyi, 2021. 50-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida 2018-yil 26-avgustdagি PQ-3920-son qarori. www.lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish choratadbirlari to'g'risida" 2018-yil 1-avgustdagи PQ-3892-son qarori

